

INSONLARDAGI NUTQ KAMCHILIKLARI; TO'G'RI TALAFFUZ QILISH

Boranbaev Miyrbek Maratovich

12-sonli umumta'lim maktabi o'qutuvchi-logopedi

Annotatsiya: Maqolada nutqdagi nuqsonlarning inson hayotiga bo'lgan ta'siri. Uning samarali usul va vositalari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: logoped, to'g'ri talaffuz qilish, muloqot, maxsus mashqlar.

Biz bilamizki, insonlar o'zaro muloqot jarayonida duduqlanish kabi ba'zi kamchiliklarga duch keladi. Bu kabi nutqdagi kamchiliklar nafaqat kichik yoshdagi bolalarda balki yoshi katta insonlarda ham uchrab turadi. Albatta, bunday muommolarni bartaraf etishda Logoped mutaxassis xizmati beqiyos bo'ladi. Logoped o'zi kim va u nima ish qiladi. Ko'pchilikni shu savol qiynaydi. Keling yaxshisi bu savolga to'htalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Logoped" kim vrach yoki pedagog?!

Logoped bu nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha mutaxassis. U maxsus mashqlar bilan chiroyli gapirish va tovushlarni aniq talaffuz qilishni o'rgatadi. Logoped ham vrach ham pedagog sifatida ish olib boradi. Tibbiyot muassasalarida u vrach ta'lim muassasalarida pedagogik sifatida faoliyat yuritadi.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek nutqdagi nuqsonlar bilan ishlashda Logoped katta rol o'ynaydi. Shu o'rinda aytish joizki nutqdagi nuqsonlar kichik bolalarda balki yoshi katta insonlarda ham uchraydi. Xo'sh, aslida kimlar Logopedga murojaat qilishadi. Albatta, nutqida nuqsoni bo'lgan har bir shaxs Logopedning mijozi bo'lishi mumkin.

Aytaylik, 1. Yosh bolalar

Nutqi sekin rivojlanayotgan, duduqlanayotgan, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga qiynalayotgan bolalar Logopedning asosiy mijozi.

2. Abituriyentlar. Ko'pchilik o'ylashi mumkin. Abituriyentga kerak emas deb afsuski bu noto'g'ri xulosa. Nutqiy malakani talab etadigan san'at institutiga kirishni xohlagan o'z oldiga katta maqsadlar qo'ygan yoshlar ham Logopedning maslahatlariga muhtojlik sezishadi.

3. Katta yoshlilar. Xo'sh, katta yoshli insonlarga Logopedni nima keragi bor deb o'ylaganlar afsuski yo'q emas. Albatta, ishi doimiy muloqot bilan bog'liq kasb egalari ham Logopedga tez tez murojaat qilib turishadi. Afsuski ba'zan xodimning biror mansabini egallashda talafuzdagi kamchiliklar to'siq bo'ladi. Va korxonada Logopedga borish tavsiya etiladi

4. Bemorlar. Bosh miyaning jarohatlanishi oqibatida ya'ni insultni boshidan o'tkazgan bemorlar ham Logopedga o'z ehtiyojini sezadi. Bunday hollarda maxsus metodlar yordamida bu kabi muammolar bartaraf etiladi.

Ko'rib turganingizdek nutqdagi nuqsonlar albatta Logoped mutaxassis yordamida bartaraf etiladi.

Xo'sh, Logoped mutaxassis bo'lish uchun nimalar talab etiladi?!

1. Logoped o'z faoliyati davomida ta'lim berish bilan shug'ullanadi. Shuning uchun pedagogikadan xabardor bo'lishi zarur.

2. Mutaxassis tayanch tibbiy bilimlarni ham egallagan bo'lishi lozim. Chunki u muayyan kasalliklar patologiyasi bilan ham shug'ullanadi.

3. Logoped ayni paytda yaxshi psixolog ham bo'lishi kerak. Chunki u bolalar bilan ishlashda psixolog qobiliyati juda zarur.

4. Psixologik hamda Pedagogik bilimlar bilish bilan bir qatorda o'z ona tilimizni mukammal bilishi talab etiladi. Bundan tashqari Logoped o'ta sabr bardoshli, chiqishishuvchanlik, xotirjamlik shu bilan birga aktyorlik qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

5. Va nihoyat shuni aytish kerakki, Logopedni o'zida nutqiy nuqsonlar bo'lmasligi kerak.

Yuqorida sanab o'tganlarimiz har biri Logopedda bo'lishi kerak. Shundagina u yetuk mutaxassis bo'ladi. Albatta, nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etishda Logopedning o'rnini alohida ahamiyatga ega.

Nutqdagi kamchiliklarining kelib chiqishining asosiy sabablari

Bolalardagi aqliy rivojlanishda og'zaki nutqining vujudga kelishi katta ahamiyatga egadir. Hozirgikunda nafaqat kichik yoshdagi bolalarda balki yoshi katta insonlarda ham nutq nuqsonlari yo'q emas. Bunday nutq nuqsonlari kelib chiqishi asosiy sabablari eshitish markazlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari shuni aytib o'tish joizki, tilimizning rivojlanishi ham nutqdagi nuqsonlarga ta'sir etmay qolmaydi. Nutqdagi nuqsonlar kichik yoshdagi bolalarda ham kattalarda ham turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi nutq organlari yaxshi rivojlanmaganligi sababli ham bu kabi nutq nuqsonlarini ko'rishimiz mumkin.

Nutq nuqsonlari odatda til, tanglay, tish, lablar kabi organlar faoliyatiga bog'liq bo'lgan holda ba'zi tovushlarni talaffuz qila olmaslik hamda duduqlanish kabi holatlarga guvoh bo'lamiz. Logoped mutaxassis nutqdagi nuqsonlar bilan ishlashda avvalo nutqning buzilishiga sababni aniqlab olish zarur. Albatta shundagina bu nuqsonni bartaraf etish oson bo'ladi. Nutq nuqsonlari og'zaki hamda yozma shaklda bo'ladi. Ko'p tarqalgan nutq nuqsonlari haqida to'htalib o'tsak. Alaliya, Afaziya, Disloliya, Rinolaliya va boshqa.

Afaziya ko'proq yoshi katta insonlarda uchraydi. Shakllangan nutqning buzilishi. Bunda ko'pincha miya po'stlog'i nutq bo'limlarida shikastlanish turli

kasalliklar insult, travma, o'simtalar va boshqa ruhiy kasalliklar sabab bo'lishi mumkin. Aynan shu kabi sabablar tufayli rivojlangan nutqni buzilishi kabi kasallikni ko'rishimiz mumkin.

Albatta hozirgi kunda bolalarda ko'pincha duduqlanish, ba'zi tovushlarni talaffuz qilish va yozishda ko'plab nuqsonlarni ko'rishimiz mumkin. Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida shakllanadi. Nutq kamchiliklari borgan sari ko'proq kuchayib boradi. Boladaning nutqidagi qandaydir o'zgarishni sezgan ota ona albatta logoped mutaxassisga murojaat qilgani ma'qul. Bolaning rivojlanishida nutq nuqsoni katta ahamiyatga ega. Boladagi bu nuqson kelgusida ham bolaga ko'plab qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun boladagi nuqsonni bilgan ota ona albatta Logoped mutaxassisga murojaat qilgani ma'qul. Bolalardagi nutq nuqsonlariga asosiy sabablarni keltirib o'tsak.

1. Embrion rivojlanish davrida turli xil patologiyalar.

2. Xomiladorlik vaqtida taksikoz, viruslar va endokrin kasalliklar, jarohatlar, qonning rezus faktorlogi mos kelmasligi.

3. Tug'ruq vaqtidagi shikastlanish.

4. Miya chayqalishi bilan birga sodir bo'ladigan bosh miya kasalliklar, meningit va ensofalit

5. Nasliy faktorlar

Yuqoridagi sabablardan ko'rib turibmizki bu kabi hollarda bolaning nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalardagi bunday nuqsonlar uchramasligi uchun maxsus sharoit zarurdir.

1. Bola ruhiy va jismoniy jihatdan sog' bo'lishi lozim.

2. Normal aqliy qobiliyatga ega bo'lishi

3. Yetarli darajada ruhiy aktiv bo'lish lozim.

Albatta, bunday mos sharoit bolaning tilidagi nuqsonlar bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Nutqiy kamchiliklar Logopediya fanida muayyan tilning me'yoridan chetga chiqishi deb tasniflanadi. Nutq kamchiliklar bartaraf etishda Logoped mutaxassisdan juda katta sabr matonat talab etiladi. U o'zining metodlari, qo'llanmalari hamda logopedik massalari yordamida nutqiy nuqsonlarni bartaraf etadi.

Nutq nuqsonlari quyidagi mezonlar yordamida tekshiriladi.

1. Gugulash davri. (3 oylik)

2. 1 yoshdan 6 oylik (10- 15 ta so'z)

3. 2 yoshda (300 ta so'z)

4. 3 yoshda (1000 ta so'z)

5. 6 -7 yoshda kelib (4000 dan ortiq lug'at boyligiga ega bo'lishi lozim.)

Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda Logoped mutaxassis bajarish kerak bo'lgan massajlar.

1. Artikulyatsion (qo‘l muskullari, nafas naylarini rivojlantiradigan mashqlar)
2. Logomassaj (tetiklashtiruvchi mashqlar)
3. Muommoli tovushlarga nutq qo‘yish (taqlid va mexanik mashqlar)
4. Nutqni rivojlantirish didaktikasi.

Logoped mutaxassis tavsiyasiga to‘xtalib o‘tsak;

Bolalar nutqi ba‘zi tovushlarni talaffuz qilishga qiynaladi. Duduqlanish ham kichik yoshdagi bolalarda ko‘proq uchraydi. Bolalardagi bunday holatni ko‘rgan ota ona albatta Logopedga murojaat qilishi zarur. Qancha oldin murojaat qilsa shuncha tez bu nuqsonni bartaraf etishga muvaffaq bo‘ladi.

Nutqdagi nuqsonlarning inson hayotiga ta‘siri.

Biz bilamizki, nutqdagi nuqsonlar inson hayotiga o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Nutqdagi nuqsonlar insonning kelajagiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Insonning ma‘lum bir kasb egallashi va ishlashga bu nuqsonlar to‘sqinlik qiladi. Logoped mutaxassis esa bu kabi muommoni bartaraf etadi. Nutqida nuqsoni bor bolalar ko‘proq boshqalar bilan muloqot jarayonida ko‘plab qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu narsa bolaning faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Boladagi bu kabi nuqsonlar aqliy rivojlanishiga ayniqsa oliy tafakkuruga, shaxsning shakllanishi ta‘sir ko‘rsatadi. Ularda bu nuqsonlar tufayli boshqalardan tortinchoqlik, qatiyatsizlik, odamovilik, nomukammallik tuyg‘usi kabi salbiy xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Logopedning vazifasi nutqdagi nuqsonlar bartaraf etish, barkamol rivojlanishini ta‘minlashdan iborat.

Albatta, nutqdagi nuqsonlar tuzatish masalalari dastlab 17 - asrda Yevropa mamlakatlarida Surdopedagogika oid ilmiy ishlarda tadqiq etila boshladi. 19 - asrning ikkinchi yarmida bu sohaga mustaqil ravishda ammo tibbiyot nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi. Asta sekin nutq faoliyatining tabiati haqidagi tasavvurlar kengayib boradi. Bu orada Logopediya fani tubdan o‘zgaradi. Pedagogik mazmuni birinchi o‘ringa qo‘yiladigan bo‘ldi. Logoped mutaxassis amaliy va nazariy jihatdan boladagi nuqsonni bartaraf etadi.

U tilning ya‘ni nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning talaffuzi, leksik va grammatik jihatdan tafakkur va butun ruhiy faoliyati uzviy bog‘liqligi bilan belgilanadi.

Logopedni maqsadi nutqidagi nuqsoni bor shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimni ishlab chiqish, shuningdek, nutq nuqsoning oldini olishdan iborat.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, nutqdagi nuqsonlarning inson hayotiga salbiy ta‘siri yo‘q emas. Afsuski bu holat bugungi kunda juda ko‘p shaxslarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Albatta bu kabi nuqsonni bartaraf etish uchun Logoped mutaxassisga vaqtida murojaat qilgan ma‘qul. Shundagina bu kabi muommo tezroq bartaraf etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Volkovo L.S Logopediya 2004-yil
2. Ayupova M Logopediya 2019-yil